

«2020.11.10 dan 2020.12.09 gacha bo'lgan davrda cheklanmagan aloqa» Aksiyasining qoidalari

«2020.11.10 dan 2020.12.09 gacha bo'lgan davrda cheklanmagan aloqa» Aksiyasi (keyingi o'rinlarda - «Aksiya») «Humans» Ma'suliyati cheklangan jamiyat, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2B uy, STIR 306624856 (Provayder), tomonidan o'tkaziladi va Provayder (Mijoz) bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish uchun yangi abonentlarni jalb qilishga qaratilgan.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarining matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi Provayder tomonidan tasdiqlangan hamda www.humans.uz saytida joylashtirilgan HUMANS aloqasi xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida, shuningdek Tariflarning tavsifida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi belgilanmagan bo'lsa).

1.2. Aksiya paketi – Mijozga Provayder tomonidan Aksiyaning ushbu Qoidalarida belgilangan shartlar asosida taqdim etiladigan aloqa xizmatlari paketi.

1.3. Aksiya ishtirokchilari – Mijozlar, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan, «Humans» aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Operator bilan Xizmatlar ko'rsatish Shartnomasini tuzgan hamda Qoidalarining 2.2. bo'limida sanab o'tilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslar.

1.4. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi

1.5. Aksiyaning o'tkazilish davri: 2020.11.10 y. dan 2020.12.09 y. gacha.

2. Aksiyaning tavsifi

2.1. Aksiyaning o'tkazilish davrida hamda Aksiya Qoidalarining 2.2. bandida ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda Mijoz Aksiya paketini ulab olish imkoniga ega. Ushbu Aksiya paketi doirasida Mijozga Aksiya o'tkazilishi davri tugaguniga qadar abonent to'lovi olinmaydigan «Cheklanmagan daqiqalar va Cheklanmagan internet» paketi, «Cheklanmagan SMS» xizmati taqdim etiladi. «Cheklanmagan daqiqalar va Cheklanmagan internet» paketining tavsifi Saytda Tariflar bo'limida keltirilgan, Tavsif Aksiyaning ushbu Qoidalariga zid bo'lmagan joylarda amal qiladi.

2.2. Aksiya paketini ulash uchun Mijoz quyidagi harakatlar majmuini amalga oshirishi kerak:

- 2020.09.15 gacha Humans'ning rasmiy sayti yoki Mobil ilovasi orqali oldindan buyurtma amalga oshirish;
- 2020.10.28 sanasigacha Provayder bilan aloqa xizmatlari ko'rsatish haqida Shartnoma tuzish (Shartnoma Aksiya o'tkaziladigan davr davomida amalda bo'lishi kerak);

- o'zining abonent qurilmasiga «Humans» Mobil ilovasini o'rnatish;

- Mijoz Shaxsiy hisobvarag'ining balansini kamida 300 000 (uch yuz ming) so'mga to'ldirishi, shuningdek Shaxsiy hisobvaraqing balansini Aksiyaning butun amal qilishi davrida ko'rsatilgan summadan kam bo'lmagan mablag' bilan ta'minlab turishi.

- 2020.11.11 dan keyin Aksion paketni ulash uchun Aksiya ishtirokchisi Provayderning Aloqa markaziga murojaat qilishi kerak

2.4. Aksiya paketi 1 (bir) sutkaga teng bo'lgan Hisob-kitob davriga ulaniladi hamda 2.2. bandida ko'rsatilgan shartlar bajarilganida keyingi Hisob-kitob davriga avtomatik ravishda uzayadi. 2.2. bandida ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganida Aksiya paketidan foydalanib bo'lmaydi va Mijoz Ilovada foydalanish mumkin bo'lgan istalgan Tarif paketini ulatib olish imkoniga ega.

2.5. Aksiya paketining amal qilishi yakunlanishi bilan, shuningdek Aksiya o'tkazish davri tugashi bilan Mijoz Aksiya paketi/Aksiyaning tugashi sanasida ulanish mumkin bo'lgan Tarif paketlaridan birini mustaqil ravishda tanlashi kerak. Mijoz avval ulangan Tarif paketi avtomatik tarzda uzaytirilmaydi.

3. Cheklovlar

3.1. Aksiya MMS xizmatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3.2. Mijoz har qanday Tarif paketidan Aksiya paketiga o'tsa, bunday o'tish ushbu Qoidalarining shartlarida belgilanganidek, Aksiya paketi ulangan vaqtdan boshlab amalga oshiriladi, shu bilan birga Tarif Paketidan haqiqiy foydalanilgan kunlar soniga qarab oldin ulangan Tarif paketi narxining mutanosib qayta hisoblanishi amalga oshadi.

4. Yakuniy qoidalar

4.1. Ushbu Qoidalar Provayder Saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Provayder ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yoki Aksiyani bekor qilishga haqli, buning uchun u Saytda tegishli xabarni joylashtirgan holda bu haqda oldindan ma'lum qilishi kerak. Saytda tegishli ma'lumot joylashtirilgan sana ma'lum qilish sanasi hisoblanadi. Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan yoki Saytda tegishli ma'lumot e'lon qilingan vaqtdan bekor qilingan hisoblanadi.

4.2. Qoidalarining 2-bo'limida sanab o'tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga yo'llangan oferta hisoblangan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.